

“HURRIYAT” VA “YANGI O‘ZBEKISTON” GAZETALARINING INTERVYULARIDA GENDER TENGLIK VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH, OILAVIY QADRIYATLAR, TA’LIM SIYOSATI HAMDA IJTIMOIIY ONG TRANSFORMATSIYASI TALQINI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-81-85>

Jalolova Zilola Mirkashibovna

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Tarjimashunoslik va Xalqaro jurnalistika fakulteti,
1-bosqich magistranti.*

Email: zmylifez@mail.ru, tel:97-770-96-98

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Hurriyat” va “Yangi O‘zbekiston” gazetalarining intervyularida gender tenglik, madaniyatni rivojlantirish, oilaviy qadriyatlar, ta’lim siyosati hamda ijtimoiy ong transformatsiyasining talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda intervyu janrining jamiyatda ijtimoiy ongni shakllantirish va yangilashdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, rasmiy davlat siyosati va ijtimoiy qarashlarning ommaviy axborot vositalari orqali uyg‘unlashuvi keltiriladi. Tahlil natijalari gender tenglik g‘oyalarining madaniy rivoj, oilaviy munosabatlar va ta’lim tizimi orqali jamiyat tafakkuriga singib borayotganini ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar:** gender tenglik, intervyu, janr, madaniyat, oilaviy qadriyatlar, ta’lim siyosati, ijtimoiy ong.*

ABSTRACT

This article analyzes the interpretation of gender equality, cultural development, family values, education policy, and the transformation of social consciousness based on interviews published in the Hurriyat and Yangi O‘zbekiston newspapers. The study highlights the role of the interview genre in shaping and renewing public awareness. It also examines the interaction between state policy and social perceptions as reflected in the mass media. The findings indicate that ideas of gender equality are increasingly integrated into social consciousness through culture, family relations, and the education system.

***Keywords:** gender equality, interview, genre, culture, family values, education policy, social consciousness.*

АННОТАЦИЯ

В статье на примере интервью, опубликованных в газетах «Hurriyat» и «Yangi O‘zbekiston», анализируется интерпретация вопросов гендерного равенства, развития культуры, семейных ценностей, образовательной политики и трансформации общественного сознания. Особое внимание уделяется роли жанра интервью в формировании и обновлении общественного мышления. Раскрывается взаимосвязь государственной политики и общественных взглядов, транслируемых через средства массовой информации. Результаты исследования свидетельствуют о возрастающем влиянии идей гендерного равенства на культурное развитие, семейные отношения и систему образования.

***Ключевые слова:** гендерное равенство, жанр, интервью, культура, семейные ценности, образовательная политика, общественное сознание.*

KIRISH

XXI asr jamiyat rivojining dolzarb muammolaridan biri ijtimoiy ongning yangilanishi va demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishi hisoblanadi. Mazkur jarayonda gender tenglik, madaniyatni rivojlantirish, oilaviy qadriyatlar va ta'lim siyosati masalalari e'tiborgir. Ushbu tushunchalar nafaqat davlat siyosati darajasida, balki jamiyat a'zolarining kundalik tafakkuri va hayotiy pozitsiyasida ham aks etishi zarur. Ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuot ijtimoiy ong transformatsiyasining asosiy vositalaridan biridir. “Hurriyat” va “Yangi O'zbekiston” gazetalarida chop etilayotgan intervyular jamiyatdagi dolzarb masalalarni ochiq muhokama qilish, rasmiy siyosat va ijtimoiy qarashlar o'rtasida muloqot maydonini yaratishda muhim. Ayniqsa, intervyu janri orqali gender tenglik, madaniyat, oila va ta'lim masalalarining turli qatlam vakillari nuqtayi nazaridan talqin qilinishi ijtimoiy ongning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”da (SDG-5) gender tenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlarning imkoniyatlarini oshirish katta bir maqsad sifatida belgilangan [1]. Biroq, ommaviy axborot vositalarida ayollar faqat 24 foiz holatlarda faol sub'ekt tariqasida gavdalangan (“Global Media Monitoring Project”, 2020) [2]. Demak, axborot makonida ayol obrazi hamon erkaklarga qaraganda ikkilamchi darajadaligidan darak.

Bugungi kunda O'zbekistonda gender tenglik hamda ayollarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor vafasidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ushbu yo'nalishda ko'pgina huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi [3]. Hususan, 2019-yil 17-avgustda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonun qabul qilingan, 2024-yil noyabrdan “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” tasdiqlandi [4]. Yuqoridagi hujjatlar O'zbekistonda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi faolligini ko'tarish, ularning OAVdagi tasvirini ijobiy rivojlantirishda huquqiy asos tug'dirdi. Mazkur ishda “Hurriyat” va “Yangi O'zbekiston” gazetalaridagi intervyular misolida gender tenglik va madaniyatni rivojlantirish, oilaviy qadriyatlar, ta'lim siyosati hamda ijtimoiy ong transformatsiyasining talqini tahlil qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida gender tenglik, madaniyatni rivojlantirish, oilaviy qadriyatlar, ta'lim siyosati hamda ijtimoiy ong transformatsiyasi masalalarini yorituvchi ilmiy, nazariy va amaliy manbalar o'rganildi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, xususan, “Hurriyat.uz” va “Yuz.uz” internet nashrlaridagi materiallar qolaversa, intervyu janriga oid ilmiy qarashlar tahlil qilindi.

Oilaviy qadriyatlar bo'yicha adabiyotlarda oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti sifatida baholanadi. Tadqiqotlarda zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlarning transformatsiyasi, erkak va ayol o'rtasidagi mas'uliyatning adolatli taqsimlanishi masalalari keng yoritilgan.

Ta'lim tizimi orqali gender tenglik, ijtimoiy adolat va inson huquqlariga hurmat g'oyalari shakllantiriladi. Tadqiqotchilar ta'lim siyosatida gender yondashuvning mavjudligi jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar. “Hurriyat” va “Yangi O'zbekiston” gazetalari o'ld tahliliy manbalarda ushbu nashrlarning jamiyatda ijtimoiy ongni shakllantirishdagi o'zni alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar bu gazetalarni davlat siyosati va jamoatchilik fikri o'rtasidagi muhim kommunikativ ko'prik sifatida baholaydi. Ayniqsa, intervyular orqali gender tenglik, madaniyat, oila va ta'lim masalalarining yoritilishi ijtimoiy ong transformatsiyasiga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Umuman olganda, foydalanilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gender tenglik, madaniyatni rivojlantirish, oilaviy qadriyatlar va ta'lim siyosati masalalari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda o'rganilishi zarur. Ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuot intervyulari ushbu jarayonlarni jamiyat ongiga singdirishda muhim vosita bo'lib, ijtimoiy ong transformatsiyasining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM. Intervyu – bu tuzilgan suhbat bo'lib, unda bir ishtirokchi savol beradi, ikkinchisi javob beradi [5]. “Hurriyat” gazetasi intervyularida ko'proq ijtimoiy fikr, jamoatchilik pozitsiyasi va hayotiy tajribaga tayangan yondashuv ustun. “Yangi O'zbekiston” gazetasi intervyularida esa davlat siyosati, huquqiy asoslar va strategik maqsadlar bilan bog'liq qarashlar keng yoritiladi. Ushbu ikki yondashuv uyg'unligi jamiyatda muvozanatli ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Ammo aytish joizki, bu mavzudagi intervyularning soni sanoqli. Hozirgi paytda gender tenglik mavzusini qamragan suhbatlarda nafaqat ziyoli xotin-qizlar balki oddiy aholi orasidan ham foydali intervyular tayyorlansa maqsadga muvofiq. Negaki, omma orasidagi muammolarni bartaraf etishda ularning fikrini ham bilish muhimdir.

“Hurriyat” va “Yangi O'zbekiston” gazetalariidagi intervyularda gender tenglik masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko'rsatiladi. Suhbatdoshlar gender tenglikni faqat ayollar muammosi emas, balki jamiyatning umumiy rivoji bilan bog'liq masala sifatida bayon etadi. “Yangi O'zbekiston” gazetasi intervyularida gender tenglik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida yoritilib, ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Yuz.uz saytida e'lon qilingan “Yangilanayotgan O'zbekistonda gender tenglikning huquqiy asoslari” sarlavhali maqolada gender tenglikning ham xalqaro huquqiy va konstitutsiyaviy huquqiy ahamiyati batafsil yoritilgan [6]. Qonunchilik bazasi, institutsional mexanizmlar va amaliy dasturlar intervyular orqali keng jamoatchilikka tushuntiriladi. Intervyularda madaniyatni rivojlantirish masalasi gender tenglik bilan uzviy bog'liq. Madaniyat jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilovchi asosiy omil ekan, unda erkak va ayolning o'zni teng va muhim.

Oilaviy qadriyatlar masalasi har ikkala gazeta intervyularida muhim mavzu sifatida yoritiladi. Hususan, “Hurriyat” gazetasida “To'y – namoyish emas, balki

huququy va axloqiy kelishuvdir” nomli maqolada bir qator ijodkor ayollarning oilaviy qadriyatlar hamda madaniyatimizga mos bo‘lmagan urf-odatlar haqida material berilgan [7]. Unda to‘y marosimlaridagi isrofgarchiliklar haqida tanqidlar uchraydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ziyoli ayollar ham bugungu kunda jamiyatdagi salbiy jihatlar haqida baralla fikr bildirmoqda. Gender tenglik oilaga zid tushuncha emas, balki oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlashda tavsiflanadi. Intervyularda oilada erkak va ayolning o‘zaro hurmatga asoslangan munosabati, majburiyatlarning adolatli taqsimlanishi va farzand tarbiyasida ota-onaning teng mas‘uliyati ta’kidlanadi. Natijada, an‘anaviy oilaviy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy talablar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

“Hurriyat” gazetasi intervyularida oilaviy qadriyatlar ko‘proq axloqiy hamda ma’naviy jihatdan yoritilsa, “Yangi O‘zbekiston” gazetasida mazkur masala ijtimoiy siyosat va demografik rivojlanish bilan bog‘liq holda ochiqdanadi. Ta’lim siyosati gender tenglik va ijtimoiy ong transformatsiyasining asosiy vositalaridan biri sifatida intervyularda keng yoritiladi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi intervyularida ta’lim tizimidagi islohotlar, qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va gender stereotiplarini bartaraf etish masalalari davlat siyosati darajasida ochib beriladi.

“Hurriyat” gazetasi intervyulari ta’lim masalasida ijtimoiy ong, tarbiya va mentalitet bilan bog‘liq ravishda tayyorlanadi. O‘qituvchi, ota-ona va jamiyatning ta’lim jarayonidagi roli muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Ta’lim orqali gender tenglik g‘oyalarining singdirilishi jamiyatda ijtimoiy ongning bosqichma-bosqich transformatsiyasiga olib keladi. “Hurriyat” va “Yangi O‘zbekiston” gazetalaridagi intervyular ijtimoiy ong transformatsiyasining muhim axborot-muloqot maydoni hisoblanadi. Intervyular orqali jamiyatda mavjud qarashlar tanqidiy tahlil qilinib, yangi ijtimoiy qadriyatlar shakllantiriladi. Gender tenglik, madaniyat, oilaviy qadriyatlar va ta’lim siyosatining muntazam yoritilishi jamiyat a’zolarida tenglik, adolat va mas‘uliyat hissini kuchaytiradi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va demokratik taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “Hurriyat” va “Yangi O‘zbekiston” gazetalaridagi intervyular gender tenglik, madaniyatni rivojlantirish, oilaviy qadriyatlar va ta’lim siyosati masalalarini yoritishda muhim ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ega. Ushbu intervyular jamiyatda ijtimoiy ongning transformatsiyasiga xizmat qilib, yangi demokratik qadriyatlarning qaror topishiga asosdir.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Организация Объединенных Наций. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development [Электронный ресурс]. – Нью-Йорк: United Nations, 2015. – Режим доступа: <https://sdgs.un.org/goals/goal5> (murojaat sanasi: 28.01.2026)
2. Global Media Monitoring Project. Who Makes the News? 2020 Global Report [Электронный ресурс]. – Toronto: World Association for Christian

Communication (WACC), 2021. – 204 с. – Режим доступа: <https://whomakesthenews.org> (murojaat sanasi: 28.01.2026)

3. O‘zbekiston Respublikasi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 02.09.2019, O‘RQ-562-son [Elektron resurs]. — Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-4494849> (murojaat sanasi: 28.01.2026)

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi: Qaror, 28.05.2021, SQ-297-IV-son [Elektron resurs]. — Manba: <https://lex.uz/docs/-5466673> (murojaat sanasi: 28.01.2026)

5. Швец Е.В. Специфика развития современного “звездного” интервью. Автореферат. – Калининград, 2007. – 117 стр.

6. <https://yuz.uz/uz/news/yangilanayotgan-ozbekistonda-gender-tenglikning-huquqiy-asoslari> (murojaat sanasi: 28.01.2026)

7. <https://uzhurriyat.uz/category/oav-va-at/> (murojaat sanasi: 28.01.2026)